

**TURIZM SOHASINI RAQAMLASHTIRISHDA ZAMONAVIY  
TEXNOLOGIYALARING O'RNI**

**Ravshanov To'yli Gulmurodovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0000-8357-6061

[tiu\\_1990tuyli@mail.ru](mailto:tiu_1990tuyli@mail.ru)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada dunyoda turizm sohani raqamlashtirish, turistik to'lovlarini amalga oshirish zamonaviy mobil qurilmalardan foydananishning ahamiyati o'r ganilgan. Shuningdek, mobil to'lov xizmatlarini amalga oshiruvchi eng yirik tizimlar va mobil to'lov xizmati provayderlarining zamonaviy turizm sohasidagi o'rni tadbiq etilgan.

**Kalit so'zlar:** turizm provayderlari xizmatlari, turizm, mobil to'lov platformalari, sayohat, mobil qurilmalar.

**РОЛЬ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ЦИФРОВИЗАЦИИ ТУРИЗМА**

**Равшанов Туйли Гулмурадович**

Ташкентский государственный экономический университет

**Аннотация.** В этой статье рассмотрена важность цифровизации туристического сектора в мире, использование современных мобильных устройств для осуществления туристических платежей. Также реализована роль крупнейших поставщиков услуг мобильных платежей и поставщиков услуг мобильных платежей в сфере современного туризма.

**Ключевые слова:** услуги туристических провайдеров, туризм, мобильные платежные платформы, путешествия, мобильные устройства

**THE ROLE OF MODERN TECHNOLOGIES IN THE DIGITIZATION OF TOURISM**

**Ravshanov Tuyli Gulmurodovich**

Tashkent State University of Economics

**Abstract.** This article was examined the importance of digitization of the tourism sector in the world, the use of modern mobile devices for making tourist payments. Also, the role of the largest mobile payment service providers and mobile payment service providers in the field of modern tourism has been implemented.

**Key words:** tourism provider services, tourism, mobile payment platforms, travel, mobile devices.

### Kirish.

Bugungi kunda butun jahonda barcha sohalarni raqamlashtirish, tarmoqqa yangi innovatsiyalarni jalb qilish hamda telekommunikatsiya infratuzilmalarini yaxshilash katta e'tibor qaratilmoqda.

Dunyoning eng yirik kompaniyalari turizm sohasini raqamlashtirish hamda to'lov jarayonlarini mobil qurilmalar vositalariga integratsiyalashtirish borasida raqobat qilmoqdalar. Bunda turistlarga har tomonlama qulayliklar yaratish hamda potensial bozorni egallash bo'yicha turli xil onlayn platformalar va mobil ilovalar tashkil etilmoqda.

Ushbu sohadagi mavjud tendensiyalarga nazar tashlasak, hozirda Osiyo mamlakatlari, xususan Xitoy, Singapur hamda Malaysia mamlakatlari mazkur sohada yetakchilik qilmoqda.

### Adabiyotlar sharhi.

Turayev va Seydimovalarning (2023) fikricha, turizmnı axborot bilan ta'minlash – bu turizm tizimining samarali ishlashini ta'minlaydigan turizm faoliyati va uni qayta ishlash va tahlil qilish uchun mo'ljallangan ixtisoslashtirilgan axborot texnologiyalari to'g'risidagi ma'lumotlar majmuasi hisoblaniladi. Raqamli iqtisodiyot barcha darajadagi iqtisodiy tizimlarda sodir bo'ladigan barcha biznes jarayonlarning integratsiyalashuviga asoslanadi, bunda axborot komponentiga alohida ahamiyat beriladi, integratsiyalashgan global tizimda real vaqt rejimida iqtisodiy tizimlar faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanish imkonini beradi.

Turizm industriyasi davlat iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, u yuqori raqobatbardosh hamda shu bilan birga yangi va zamonaviy ma'lumotlarga boy bo'lib, iste'molchilarining xulq-atvoridagi o'zgarishlarga zudlik bilan javob berishi lozim bo'ladi. Ushbu vazifalar ayniqsa, turizm xizmatlarini ilgari surish uchun to'g'ri keladi, chunki u marketing strategiyasi muvaffaqiyatining asosiy omili bo'lgan ommaviy raqamlashtirish davrida iste'molchilarining e'tiborini jalb qilish va sifatli xizmat ko'rsatish asosiy vazifalardan biri hisoblaniladi (O'zbekxonov va Qo'l doshov, 2023).

Turizm sohasida yagona axborot makonini shakllantirish, bu borada turizm tarmoqda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan zaruriy ishlarni tashkil etish hamda turizm sanoati eng yangi raqamli texnologiyalarni faol joriy etishga to'liq e'tibor qaratish lozimligi ta'kidlangan (Raximov, 2022).

Mintaqa darajasida turizm sohasida axborotlashtirishni rivojlantirish mintaqaviy axborot resurslarini, shu jumladan portallarning turistik saytlarini yaratish, raqamli portallar mamlakat turizm industrijasini rivojlantirishda bugungi kunda hal qiluvchi rol o'ynashi va raqamli kontent va onlayn platformalar butun dunyo bo'ylab potensial mijozlar-turistlar e'tiborini jalb qilishning eng asosiy sharti ekanligi aytib o'tilgan (Egamberdiyev, Abduvaliyev va Pardayev, 2023).

### Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot ishini bajarishda kuzatish, ma'lumotlarni yig'ish, umumlashtirish, taqqoslash, mahalliy olimlarning turizm sohasini raqamlashtirish borasidagi iqtisodiy qarashlari, sohadagi muammolar va ularning yechimlari bo'yicha izlanishlari hamda sohaga doir qonuniy va me'yoriy-huquqiy hujjatlar o'rganilib, xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

### Tahlil va natijalar muhokamasi.


Statistik ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda dunyo bo'ylab sahohatlarni amalga oshirayotgan turistlarning 83 foizi mobil qurilmalardan keng foydanadilar. Bunda turistlar ushbu qurilmalar yordami bilan aeroportlarga yetib borishni buyurtma beradilar, samoliyat bortlariga chiqishni amalga oshiradilar hamda parvoz davomida ko'ngilochar dasturlarni tomosha qiladilar.

Ushbu imkoniyatlardan tashqari mazkur qurilmalarning yana bir foydali jihatlari borki, bundan sayyohlar hozirda keng hamda samarali tarzda foydalanib kelmoqdalar.

Ya'ni ushbu qurilmalar orqali sayohatlar davomida mahsulot va xizmatlarni sotib olish uchun mobil to'lovlar amalga oshiriladi. Butun dunyo bo'y lab "Travel & Tourism" mobil to'lov tizimlari jadal suratlarda rivojlanmoqda.

"Google Pay", "Apple Pay", "PayPal", "Alipay" hamda "WeChat Pay" mobil to'lov tizimlari orqali eng to'lovlar amalga oshirilgan. Mobil qurilmalar tezda kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylanmoqda hamda ulardan keng miqyosida foydalanish mobil to'lovning kuchli va barqaror o'sishiga olib turtki bo'lmoqda.

2020-yilda AQShda mobil to'lovlardan foydalanuvchilar soni 150 millionga yetgan. bu AQSh umumiy iste'molchi aholisining 56 foizini tashkil qilgan. Dunyo bo'y lab mobil to'lovlar orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar 2015-yilda 450 milliard AQSh dollar bo'lgan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich 2,74 trillion dollarni tashkil qilgan.



**1-rasm. 2015-2017-yillarda dunyo bo'y lab sayohatlarda mobil to'lov tizimlaridan foydalanish darajasi<sup>59</sup>**

Yuqorida keltirilgan rasmdan ham ko'rish mumkinki, butun dunyoda mobil to'lovlar bozorida Xitoy yaqqol yetakchisi sifatida paydo bo'lgan. "Global Web Index" tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, 2015-yilda Osiyo-Tinch okeani mintaqasida istiqomat qilayotgan aholining 25 foizi mobil qurilmalarni ishlatgan holda to'lovlarini amalga oshirgan bo'lsa, 2017-yilda foydalanuvchilar soni 10 foizga ortgan holda 34 foizni tashkil etgan.

2015-2017-yillar davomida Afrika, Yevropa, Lotin Amerikasi, Yaqin Sharq va Shimoliy Amerikada mobil to'lovlar o'sishi 3 foizdan 6 foizgacha, Osiyoda esa - Tinch okeani 9 foizga yetdi. 2017-yilda Xitoyda smartfon foydalanuvchilari orasida mobil to'lov larning kirib borish darajasi 46 foizni tashkil etgan.

Ushbu ko'rsatkich Shimoliy Amerika darajasidan ikki baravar va jahon o'rtacha ko'rsatkichidan 13 foizga yuqori bo'lib qolmoqda.

<sup>59</sup> "Global Web Index" sayti ma'lumotlarga asosan muallif tomonidan tayyorlangan.

Mobil sayohat to'lovlarning o'sishi umuman olganda mobil to'lovlarning ortishi bilan uzviy bog'liq hisoblaniladi. 2015-yilda sayohat va turizm xizmatlarini amalga oshirish uchun AQShda mobil to'lovlar orqali 8,7 mlrd. AQSh dollarini miqdoridagi mablag'lar o'tkazilib berilgan.

2016-yilda butun jahon mobil to'lovlar bozoridagi pul o'tkazmalari miqdori 15,5 foizga hamda 2017-yilda sayohat agentlari tomonidan mobil qurilmalar orqali sayohatlarni buyurtma qilish 45 foizga, smartfonlar orqali 39 foizga hamda planshetlar orqali 6 foizga ortgan.

Bugungi kunda turli xil mobil tashkilotlar tomonidan sayohatlarni amalga oshirishda zamonaviy to'lov tizim foydalanishni taklif etmoqdalar. Buning natijasida odatiy mobil qurilmalardan amalga oshiriladigan transaksiya pul oqimlari ortib bormoqda.

Dunyoda ta'minot zanjiri bo'ylab turistik tashkilotlar tomonidan har bir provayder bilan silliq hamkorlik aloqalarini ta'minlash ayniqa muhim hisoblaniladi. To'lovlarni amalga oshirish va to'lovlarni qaytarish kabi muammolarni hal qilish jarayoniga alohida e'tibor beriladi.

### 1-jadval

#### Dunyoda mobil to'lov xizmatlarini amalga oshiruvchi eng yirik tizimlar<sup>60</sup>

| Mobil to'lov xizmatining nomi                              | Asosiy tashkilot   | To'lov uslubi   | Texnologiyaning o'ziga xosligi  | Kuchli jihatlari va resurslari   |
|--|--|---|---|--|
| Fintech firmalari (Financial Technology)                   | - Alipay;<br>- PayPal Pay;<br>- WeChat Pay                 | QR to'lovi texnologiyasi  | "Cloud" to'lov tizimi   | - elektron tijorat va onlayn chakana savdo;<br>- savdo networki;<br>- masofadan pul o'tkazmalarini amalga oshirish     |
| Qurilmalarga asoslangan mobil to'lov xizmati provayderlari | - Android Pay;<br>- Samsung Pay                            | - Yaqin maydonidagi aloqasi vositasi;<br>- Magnitli xavfsizlik qurilmasi. | - qurilmalarga asoslangan xizmatlar;<br>- tizim qurilmaga qaram bo'limgan mobil to'lov xizmatlari | - qurilmaga asoslangan bozorga kirish;<br>- Apple watch va iPhone qurilmalari bilan integratsiyalashgan tizim.         |
| Moliyaviy institutlar va tarmoq provayder xizmatlari       | - Capital One;<br>- Visa;<br>- Union Pay;<br>- Masterpass. | - Yaqin maydonidagi aloqasi vositasi;<br>- Magnitli xavfsizlik qurilmasi. | - boshqa to'lov xizmatlari bilan integratsiyalashgan  | - ro'yxatga olishning mavjud emasligi;<br>- karta orqali to'lovlari;<br>- POS tizim uchun infratuzilmaning mavjudligi. |
| Savdolarga ixtisoslashgan mobil xizmatlar                  | - Dunkin Donuts;<br>- Starbucks                            | QR to'lovi texnologiyasi  | - ixtisoslashgan mobil xizmatlarning iste'molchilar ehtiyojlariga moslashtirilgan                 | - savdolarning boshqa marketing jarayonlari bilan integratsiyalashgan  |

Umuman olganda, bugungi kunda har biri o'ziga xos raqobatbardosh resurslarga egaligidan kelib chiqqan holda mobil to'lov xizmati provayderlarini quyidagi to'rt guruhga ajratadi:

- a. Fintech firmalari (Financial Technology) Alipay, PayPal pay va WeChat pay singari moliyaviy texnologiyalari orqali amalga oshirish;
- b. Apple Pay, Android Pay va Samsung Pay singari qurilmalarga asoslangan mobil to'lov xizmati provayderlari;
- c. Capital One, Visa Checkout, Union Pay va Masterpass kabi moliyaviy institutlar va tarmoq provayder xizmatlari tomonidan amalga oshiriladigan to'lovlari;

<sup>60</sup> Internet ma'lumotlariga asosan muallif tomonidan tayyorlanagan.

d. Dunkin Donuts va Starbucks singari savdolarga ixtisoslashgan mobil xizmatlar vositasida amalga oshirilgan to'lovlar.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, dunyo bo'ylab ko'plab turizm provayderlari xizmatlari sezilarli darajada rivojlanmoqda. Bunda Osiyo mamlakatlaridagi rivojlantirishni alohida ko'rsatib o'tish lozim hisoblaniladi.

2018-yilda Xitoy sayohat xarajatlari bo'yicha jahonda bиринчи о'rinni egallagan bo'lsa, Janubiy Osiyo va Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari sayohat xarajatlari keyingi dekada mos ravishda 5,8 foizga va 5,1 foizga rivojlanishi kutilmoqda.


Shu bilan birga, Osiyo mamlakatlari orasida ham onlayn mobil qurilmalar orqali savdo qilishi imkoniyatlari hamda raqobat sezilarli darajada rivojlanib bormoqda. Boshqa mamlakatlar bilan solishtirganda, Osiyo davlatlari ushbu to'lov tizimlarini amaliyotga joriy etishda yetakchilikni qo'lga olishga harakat qilmoqdalar.

AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya va Avstraliya mamlakatlarida 15 yoshdan yuqori bo'lgan aholining kredit kartalarini olish darajasini Osiyo mamlakatlarida yashovchi fuqarolarnikidan keskin darajada kam hisoblaniladi.

Osiyo mamlakatlarida yashovchi aholining mobil qurilmalar ishlatishi yuqori bo'lib qolmoqda. Xususan, Xitoy, Malaysiya hamda Singapur mamlakatlarida istiqomat qilayotgan aholining 55 foizidan ortig'i smartfonlardan foydaniladi.

Smartfonlarning Osiyo mamlakatlariga kirish darajasi yildan-yilga ortib bormoqda. Umuman olganda, Xitoy ushbu sohada yetakchilikni o'z qo'liga olgan. Bugungi kunda butun jahon mobil to'lov foydalanuvchilarning 61 foizini xitoyliklar tashkil etgan.

2017-yilda Xitoyda mobil qurilmalar orqali 12,8 trln. dollarlik to'lovlar amalga oshirilgan. Xitoyning "Temple" universiteti tomonidan taqdim etilgan statistik ma'lumotlarga ko'ra, mahalliy va xalqaro sayohatlarni amalga oshirgan 97 foiz xitoyliklar o'zlarining sayohatlari davomida mobil to'lovlarini amalga oshirishlarini ma'lum qilgan.



**2-rasm. Xitoylik turistlar tomonidan sayohatlardan davomida foydanilgan mobil to'lov platformalari<sup>61</sup>**

<sup>61</sup> Internet ma'lumotlariga asosan muallif tomonidan tayyorlangan.

Yuqorida keltirilib o'tilgan rasmdan ham ko'rish mumkinki, xitoylik turistlar AliPay va WeChat Pay mobil to'lov platformalari orqali sayohatlar davomida eng ko'p to'lovlarni amalgalashirgan.

Xususan, AliPay va WeChat Pay mobil to'lov platformalari orqali mos ravishda 89,5 foiz hamda 65,9 foiz miqdoridagi to'lovlarni qilingan. Shuningdek, Apple Pay platformasi orqali 23 foiz, Andriod Pay va Google Wallet tizimlari orqali 9,1 foiz va 5,9 foiz to'lovlarni bajarilgan.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, xitoylik sayohatchilar uchun xarid qilish va ovqatlanish mobil to'lov orqali to'lanadigan sayohat xizmatlarining ikkita eng keng tarqalgan turi hisobilaniladi.

Undan keyin o'rnlarda turar joy, turistik diqqatga sazovor joylar va parvoz qilish bo'lib turmoqda. Shu bilan birga, xorijiga safari davomida mobil to'lovdan foydalangan sayohatchilarning deyarli to'rtadan uch qismi xarid qilish uchun hamda 68 foizi esa oziq-ovqat, ichimliklar va restoranlar uchun mobil to'lovdan foydalangan.

### **Xulosa va takliflar.**

Xulosa qilib aytganda, turizm sohasining raqamlashtirilishi potensial yangi bozorlarning tashkil etilishiga, turistik xizmatlarning diversifikasiya qilishiga, aviachiptalarni xarid qilish, mehmonxonalarini bron qilish, hudud bo'ylab sayohat qilish, diqqatga sazovor joylar, madaniy va tarixiy meros haqida ma'lumot olish imkoniyatlarini yaratadi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda ushbu tarmoqni rivojlantirish uchun quyidagilarni amalgalashirish tavsiya etiladi:

1. Turizm sohasini raqamlashtirish ishlarini yanada jadallashtirish maqsadida, yosh tadbirdorlarning tashabbus va startaplarini moliyalashtirish va ular uchun subsidiyalar, ssudalar va grantlar berish tizimini takomillashtirish.
2. Markaziy Osiyo mamlakatlariga xorijiy turistlarni jalg qilish uchun ushbu hududlarda joylashgan turistik obyektlar to'g'risida ma'lumot beruvchi yagona turistik portal tashkil etish.
3. Mamlakatimizda turizm sohasini raqamlashtirish ishlarini samarali tashkil etish uchun Alipay, PayPal Pay va WeChat Pay singari xalqaro moliyaviy institutlarni jalg etish maqsadga muvofiq hisoblaniladi.

### **Adabiyotlar / Jumepamypa/ Reference:**

Egamberdiyev X.S., Abduvaliyev A.A. va Pardayev O.Ch. (2023) "Raqamlashtirish sharoitida o'zbekiston turistik geoportal tizimining tashkiliy arxitekturasi" "Экономика и социум" №6(109)-1 2023.

O'zbekxonov S. va Qo'ldoshov R. (2023) "Turizm sohasida raqamli iqtisodiyotning tutgan o'rni" "Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya.

Raximov Z.O. (2022) "O'zbekistonda turizm sohasida raqamli iqtisodiyot rivojlanishining muhimligi" "Builders Of The Future" jurnalni SJIF 2021-5.691, 2022-5.752.

Turayev Og'abek Kaxramanovich va Seydimova Orzigel Otanazar qizi (2023) "Turizm sohasida raqamlashtirishning o'rni" International Journal of science and education jurnalni. Volume 2, Issue 2023. ISSN-2181-3426.